

## QOZOQ XONLIGINING SHAKLLANISH TARIXI

*Xamrokulova Shoxista Shamshidinovna,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Qozoq xonligining shakllanishi tarixi Qozog'iston hududida mavjud bo'lgan Abulxayr davlati va Mo'g'uliston xonliklarini tanazzulga yuz tutishi bilan bog'liqligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Qozoq xonligining mustaqil davlat sifatida qaror topish jarayonida va uning siyosiy jihatdan yuksalishida muhim rol o'ynagan qozoq xonlariga keng to'xtalib o'tiladi.*

*Kalit so'z. Qozoq xonligi, No'g'ay O'rda, qozoqlar, jung'or-qalmoqlar, oyratlar.*

## ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КАЗАХСКОГО ХАНСТВО

*Хамрокулова Шохиста Шамшидиновна,  
Доцент кафедры всемирной истории исторического факультета Самаркандского государственного университета*

*Аннотация. В данной статье говорится об образовании Казахского ханства, создание, которого было связано с упадком государства Абулхайрхана и Монгольского ханства, существовавших на территории современного Казахстана. Также подробно обсуждаются казахские ханы, сыгравшие важную роль в процессе становления Казахского ханства как независимого государства и его политического подъема.*

*Ключевое слово. Казахское ханство, Ногайская Орда, казахи, джунгаро-калмыки, ойраты.*

## HISTORY OF THE FORMATION OF THE KAZAKH KHANATE

*Xamrokulova Shoxista Shamshidinovna,  
Associate professor of Samarkand State University named after Sharof Rashidov*

*Abstract. This article talks about the connection between the history of the formation of the Kazakh khanate and the decline of the Abulhair state and the Mongolian khanate, which existed on the territory of Kazakhstan. Also, the Kazakh khans who played an important role in the process of establishing the Kazakh Khanate as an independent state and its political rise are discussed in detail.*

*Key word. Kazakh Khanate, Nogai Horde, Kazakhs, Jungor-Kalmyks, Oirats*

*Kirish. Qozoq xonligining tashkil topish davrida iqtisodiy turmush tarzi bir xil, urf-odat va an'analari o'xshash, bir tilda so'zlashuvchi etnik jihatdan yaqin qabilalarning birlashishi asosiy rol o'ynadi. Hozirgi Qozog'istonning ulkan hududida yashovchi barcha qabilalar, Qozoq xonligi tashkil topgunga qadar, bir xalq "qozoqlar" ni ifodalagan, ammo ular yagona siyosiy birlik shaklida birlashmagan.*

*Qozoq xalqining shakllanish jarayoni XIII asr boshlarida mo'g'ullarning bosqini sabab to'xtab qoladi. Lekin XIV-XV asrlardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealar qozoq millatining shakllanish jarayonining yakunlanishiga hissa qo'shadi. Qozoq xonligining tashkil topishi etnik hududning shakllanishiga, qozoq qabila va urug'larining birlashishiga xizmat qiladi.*

*Qozoq xonligining tashkil topish jarayoni Qozog'iston hududida mavjud bo'lgan ikki davlat – Abulxayr va Mo'g'uliston xonliklarining ichki siyosiy holati bilan bog'liq bo'lib, xonligining barpo etilishi esa Jonibek va Kerey xonlarining nomlari bilan uyg'unlashadi.*

*Jonibek va Kerey boshchiligidagi qozoq aholisining bir qismining Sharqiy Dashti Qipchoqdan G'arbiy Yettisuvga ko'chishi XV asr o'rtalarida Mo'g'ulistonda Yesenbug'axon hukmronligi davrida sodir bo'lgan. Yesenbug'a Jonibek va Kerey bilan ittifoq tuzib, ularning yordami bilan nafaqat davlatdagi hokimiyatini mustahkamlash, balki o'z chegaralari xavfsizligini ta'minlashga, ulardan Abulxayrxon va oyratlarga qarshi kurashda foydalanishga umid qilgan. Shu maqsadda Yesenbug'a Janibek va Kereyga o'zining shimoli-g'arbiy hududlari - Chu va Talas vodiylarini beradi □1□. Tarixchi Muhammad Haydar Yettisuvdagi tarixiy vaziyat va Qozoq xonligining tashkil topish jarayoni haqida yozib, o'zining "Tarixi-Rashidiy" kitobida Qozoq xonligining tashkil topishini 1465-1466 - yillar deb belgilaydi □2□.*

*Jonibek va Kerey Chingizxon avlodlari bo'lib, har biri xon taxtini egallash huquqiga ega edi, lekin kattalik huquqiga ko'ra Kerey taxtga o'tiradi. 1480-1511 yillarda Qozoq xonligining hukmdori Kereyning*

o'g'li Burunduq bo'ladi.

XV asr oxiri XVI asr boshlarida Qozoq xonlari bilan Shayboniylar o'rtasidagi urushning asosiy sababi Sirdaryo bo'yidagi shaharlar va qishki yaylovlar uchun kurash bo'lib, bu hudud yosh davlat uchun eng muhim strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi. Bu kurashda qozoq xonlarining asosiy raqiblari Abulxayrxonning vorislari Shayboniylar edi. XVI asr boshlarida Qozoq xonligining kuchayishi bilan Shayboniylar Dashti Qipchoq qabilalarining bir qismi bilan Mavarounnahr tomon yo'naladi □3□.

Mavzuga oid manba va adabiyotlar sharhi. XIII-XVI asrlarda Qozog'iston, O'rta va O'rta Osiyoda sodir bo'lgan voqealar Qodirg'ali Jaloiriyning "Jomi at-tavorix" (Yulnomalar to'plami) asarida aks etgan bo'lsa, Yettisuvdagi tarixiy vaziyat, Qozoq xonligining tashkil topish jarayoni va Qozoq xonligi hayotiga oid bebaho faktlarni tarixchi Muhammad Haydar o'zining "Tarixi Rashidiy" asarida berib o'tadi □4□. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" □5□, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" □6□ va qisman Iskandar Munshiyning "Tarixi olam oroyi Abbosiy" ("Abbosiyning jahon ziynati tarixi") asarlarini ham Qozoq xonli tarixiga doir manbalar qatoriga qo'shishimiz mumkin □7□. Shuningdek, maqolada o'zbek, rus va qozoq tilidagi adabiyotlar qatori M.X.Abusaitovning qator ilmiy ishlaridan foydalanilgan □8□.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - ko'proq tarixiylik, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, Qozoq xonligining shakllanishi va uning tashkil topishiga bag'ishlangan. Ma'lumki, XV – XVIII asrlarda Markaziy Osiyo tarixi murakkab siyosiy jarayonlar kechgan davr bo'lib, Qozoq xonligining tashkil topishida XIV-XV asrlardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealarning ta'siri katta bo'lgan. Shuning uchun ham mintaqa tarixini o'rganishda Dashti qipchoq, Movarounnahr, va Yettisuv tarixini bir-biriga uzviy bog'liqligini ko'rsatib, qiyosiy – mantiqiy tahlil metodidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qozoq xonligi o'zining eng katta qudratiga XVI asrning birinchi choragida Qosimxon davrida erishdi. Uning hukmronligi davrida Qozoq xonligi aholisi birinchi marta bir million kishiga yetdi. Sirdaryo shaharlarini qo'shib olish uchun kurash Qosimxon tashqi siyosatining asosiy maqsadi edi.

Qozoq xonligining gullab yashnashi Qosimxon hukmronligi davriga to'g'ri keladi. U hali Burunduq davridayoq omadli xon hisoblanadi. Qosimxon taxtga rasman esa 1511- yilda o'tiradi va Jonibek avlodlarining hukmronligiga asos soladi. Burunduqxon esa xonlikda o'z mavqeini yo'qotib, oilasi va ko'ch-ko'roni bilan Movarounnahrqa ko'chib ketadi. Qosimxon (1511-1521) Shayboniixonning Eron shohi Ismoil bilan bo'lgan jangdagi muvaffaqiyatsizligidan foydalanib, Janubiy Qozog'istonda o'z mavqeini mustahkamlab oladi. 1515 - yilda u Sayramni egallab, Toshkentga yurish uyushtiradi. Qosimxon Mo'g'uliston xoni Sulton Said bilan yaqin aloqada bo'lgan. Sulton Said 1514-yilda Yettisuvdan ketib Sharqiy Turkistonda o'z davlatini tashkil etgan edi. Bu esa qozoq xonining Yettisuvda o'z mavqeini tiklab olishiga yo'l ochadi. G'arbda esa inqirozga uchragan No'g'ay O'rdadan ba'zi bir qabilalar ko'chib kela boshladi. Shu yo'l bilan xonlikning chegaralari kengayib boradi: uning hududlari janubda Sirdaryoning o'ng qirg'oqlari, janubi-sharqda Yettisuvning katta qismi, shimolda va shimoliy-sharqda Olatov tog'lari va Balxash ko'ligacha, g'arbda esa Yoyiq daryosigacha brogan □9□.

Shunday qilib, Qosimxon davrida qozoqlarning yagona etnik hududi tashkil topdi va mo'g'ullar istilosidan keyin birinchi marta deyarli barcha qozoq qabilalari bir davlatga birlashdi. Uning hukmronligi davrida Qozoq xonligi Yevropa va Osiyoda mustaqil davlat sifatida tanildi. Qozoq xonligi tashkil topishining dastlabki davrida Sig'noq shahri davlatning siyosiy markazi va poytaxtiga aylanadi.

Ibn Ro'zbehxon, Bobur, Mirza Haydar ta'biricha Qosimxon boshqalarga o'rnak ko'rsatuvchi, jasur, mard, harbiy mahorat egasi bo'lish bilan birga katta ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan. Uning davrida xon hokimiyati shu darajada kuchli bo'lganki, hech bir xon shuncha aholini uningchalik birlashtira olmagan. Xalq Qosimxon nomi bilan matallar bitgan, masalan, "Qosimxonning qashqa yo'li" ya'ni "Qosimxonning ravon yo'li, yoki Qosimxonning oq yo'li" kabi.

Qosimxon vafotidan keyin qozoq davlati tanazzul va siyosiy inqirozni boshidan kechirdi. Qosimxonning o'limidan so'ng 1522 - yilda uning o'g'li Mamash taxtga o'tiradi. Ammo birozdan so'ng jangda vafot etadi. 1523 - yilda Jonibekning nabirasi, Adiq sultonning o'g'li Tohir (1523-1533) taxtga o'tiradi. U o'zining o'ta vahshiyliги, shafqatsiz zolimligi bilan ajralib turar edi. Uning davrida mamlakatda ichki va tashqi norozilik, boshboshdoqlik va parokandachilik kuchayib ketadi. Qozoq xonligi ko'p hududlarni qo'ldan boy beradi. 1533 - yili Mo'g'ulistonning janubida Shayboniylar bilan bo'lgan jangda Tohirxon qirg'izlar orasida vafot etadi. Undan so'ng taxtga ukasi Buydash o'tiradi (1533-1534). U asosan Yettisuvda hukmronlik qilgan.

1538 - yildan 1580 - yilgacha bo'lgan davrda xonlik hududining tiklanishi va kengaytirilishi Qosimning o'g'li Xaqnazar nomi bilan bog'liq edi. XVI asrda Qozoq xonligi chegaralarini g'arbiga qarab kengaytirgan Xaqnazar, No'g'ay O'rdasining aksariyat qabilalarini o'z tarkibiga qo'shib oladi. No'g'ay O'rdasining parchalanishi Qozoq xonligi chegaralarini Rossiya davlatiga yaqinlashtiradi. O'rta Osiyo davlatlarining adovatidan foydalangan Xaqnazar Buxoro xoni bilan qasamyodli ittifoq tuzadi □10□.

Xaqnazar oyrat va mo'g'ul hukmdorlari bilan muvaffaqiyatli kurashlar olib borgan. Uning nomi nafaqat qozoqlarning uchala juzlarida, balki, uyg'ur va no'g'aylarda ham doston bo'ladi. U Shayboniy Abdullaxon bilan yaqin aloqalarni o'rnatgan. Xaqnazarning vafotidan keyin Jonibekning nabirasi Jadiqning o'g'li Shig'ay (1580-1582), undan keyin esa uning o'g'li Tavakkal (1582-1598) taxtga o'tiradi. U 1594 yilda Qulmuhammad boshchiligida Rossiyaga elchilar yuborgan. Uning hukmronlik davri Sirdaryo hududi uchun o'zbeklar bilan olib borilgan kurashlar bilan kechadi. 1598 - yilda esa Abdullaxonning o'limidan foydalanib, Tavakkal Sayram, Toshkent, Turkiston va Samarqand shaharlarini egallab Buxoroga yo'l oladi. Lekin 1598 - yilda Qozoq xonligi hukmdori Tavakkal Buxoro shahrini qamal qilish paytida olgan jarohatlaridan vafot etdi. Tavakkal vafotidan keyin taxtga 1598 -1628 yillarda uning ukasi, ya'ni Shig'ayning o'g'li Yesimxon (Ishimxon) (1598-1628) o'tiradi. Uning davrida poytaxt Turkiston bo'ladi.

XVII asr boshlarida qozoq davlatining ichki siyosiy ahvolidagi o'zgarishlar ro'y berib, ichki nizolar kuchayib boradi. Yesimxon davrida qozoqlar o'rtasidagi o'zaro nizolardan foydalanib, Buxoro xoni kelishuvni bekor qilib, qozoqlarni Sirdaryodan nariga quvib chiqarish va Toshkent shahrini qaytarish maqsadida yangi yurishlarni boshlaydi. Yesimxon davrida bo'lib o'tgan qozoq-Buxoro urushi 20 yildan ortiq davom etadi va Buxoro xoni o'z mag'lubiyatini tan olishi bilan yakunlanadi. Yesimxonning muvaffaqiyatli tashqi siyosati natijasida Toshkent shahri Qozoq xonligi tarkibiga kiradi. Qozoqlar va o'zbeklar o'rtasida yuz yillik urush Sirdaryo viloyati va Toshkent shahrining Qozoq xonligiga qo'shib olinishi bilan yakunlanadi.

1582 - yilda Yermak qo'shinlari Sibir xoni Kuchumxon ustidan g'alaba qozonadi. Bu mag'lubiyatdan so'ng, Sibir xonligi tarkibida bo'lgan qozoq qabilalari Qozoq xonligi tarkibiga kiradi. 1598 - yilda Sibir xonligi Rossiya davlati tasarrufiga o'tadi □11□.

XVII asrning birinchi yarmida Jung'or xonligining tashkil topishi tufayli sharqdagi qozoq yerlarini yo'qotish xavfi ortadi. Jung'oriya hukmdori (kuntayji ya'ni boshliq)ning kuchayishi va qozoq davlatida markaziy hokimiyatning zaiflashishi davrida xon unvoni 1629-1652 yillarda Jangirga tegishli bo'ladi □12□. Jung'orlarga qarshi qahramonona kurash olib borganligi uchun xalq qahramoni sifatida tarixga kiradi. 1643-yilda Jangirxon boshchiligidagi qozoq qo'shinlari Orbuloq jangida jung'orlarning bir necha marta ko'p sonli qo'shinlarini mag'lub etadi. Uning davrida Sin imperiyasi bilan yaqin aloqada bo'lgan oyratlarning Qozog'iston xonligini bosib olish xavfi kuchayadi. Jangirning o'zi 1652 - yilda oyratlar (jung'or-qalmoqlar) bilan bo'lgan janglarning birida halok bo'ldi. Jangirdan so'ng xonlikni Botirxon boshqaradi, lekin uning hukmdorligi to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi. Botirxondan keyin Jangirning o'g'li Taukexon (1652-1715) taxtga chiqdi.

XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida Qozoq xonligidagi siyosiy vaziyatni yumshatishda Taukexon muvaffaqiyatga erishadi. Davlat uchun qiyin sharoitlarda u muvaffaqiyatli ichki va tashqi siyosat olib boradi. 1680-1715 yillarda xonlikda o'zaro nizolar kuchayadi. Taukexon markaziy hokimiyatni mustahkamlash va sultonlarning rolini zaiflashtirish maqsadida davlatni boshqarishda biylarga tayana boshlaydi □8, 104□.

Taukexon biylarga tayanib, davlatni parchalashga intilayotgan dasht zodagonlariga qarshi kurashadi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida xon kengashi va biylar kengashini kuchaytirishga alohida ahamiyat beradi. Qozoq xonligida Taukexon davrida ijro va sud hokimiyati faqat xon va urug' biylariga berilar edi. Xon kengashida biylar hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan. Urug' va qabila o'rtasidagi barcha bahsli masalalar ham biylar kengashida hal qilingan. Uning davrida xonlik birmuncha mustahkamlandi □9, 70□.

Jung'or bosqinining tahdidiga duch kelgan Taukexon qirg'izlar va qoraqalpoqlar bilan harbiy ittifoq tuzadi. 1710-yilda Qoraqum sahrosi yaqinida jung'orlarga qarshi kurash olib boruvchi qo'shinlar tashkil etish maqsadida uchta qozoq juzining qurultoyi chaqiriladi.

Xulosa. XVI asrning birinchi yarmida No'g'ay O'rdasining inqirozi natijasida bir qancha qabilalarning Qozoq xonligiga ko'chib o'tishi ro'y bergan.

Oltin O'rdaning parchalanishi bilan G'arbiy Sibir va shimoliy Qozog'iston hududida Sibir xonligi tashkil topadi va u Shayboniylar sulolasining merosiy mulkiga aylanadi. Sibir xonligida O'rta Juz urug'larining ko'pchiligi yashar edi. XVI asr oxirida Rossiya Sibir xonligiga qarshi kurashda Qozoq xonligini o'zining ittifoqchisiga aylantirish maqsadini ko'zlagan. 1598-yilda Sibir xonligi qulagach, qozoq qabilalari Qozoq xonligi tarkibiga kiradi. Qozoq xonligini Jung'oriyaga qarshi kurashda harbiy-siyosiy yordamga muhtojligi Rossiya bilan yaqinlashishga undaydi. XVI-XVIII asrlarda Sirdaryo daryo havzasidagi barcha shaharlar Qozoq xonligi tarkibiga kiradi. Xullas, ko'rib o'tilgan davrda Qozoq xonligida Gireyxon (1465-1473-74), Qosimxon (1512-1521), Xaqnazar (1538 -1580), Tavakkal (1583-1598), Yesimxon (1598-1613-14, 1627-28), Taukexon (1680-1715) katta mavqega ega xonlar bo'lgan va ular Qozoq xonligining shakllanishi va keying taqdirida muhim o'rin tutgan.

#### Adabiyotlar:

- <https://saniya1607.jimdofree.com/подготовка-к-ент/казахской-ханство-в-15-18-вв>  
<http://www.tarih.spring.kz/ru/history/medieval/figures/mohammed>  
<https://www.kstu.kz/wp-content/uploads/docs/ik/teor/teor6.htm>  
Mirzo Muhammad Naydar. Tarixi Rashidiy. "O'zbekiston". T.2011. B.701  
Мухаммад Солих. Шайбонийнома.—Т.: Фафур Фулом, 1989. -Б.34  
Ҳофиз Таниш ибн Мирмуҳаммад Бухорий. Абдулланнома. 1-жилд, Т., 1966  
<https://www.kazportal.kz/kazahskoe-hanstvo-xv-xviii-vv>  
Абусейтова М. Х. «Казахстан и Центральная Азия в XV—XVII вв.: история, политика, дипломатия» (1998), Абусейтова М. Х. История Казахстана и Центральной Азии. Дайк-Пресс, 2001. — С.611, Казахское ханство во второй половине XVI века / М.Х. Абусейтова ; Академия наук Казахской ССР, Институт истории, археологии и этнографии им. Ч. Ч. Валиханова. — Издательство Наука Казахской ССР, 1985. — С.104  
[https://studopedia.ru/10\\_74290\\_lektsiya---kazahskoe-hanstvo-v-XVI-nachale-XVIII-vekov.html](https://studopedia.ru/10_74290_lektsiya---kazahskoe-hanstvo-v-XVI-nachale-XVIII-vekov.html)  
Жолдасбайұлы С. Ежелгі және Орта ғасырлардағы Қазақстан. Алматы: Ана тілі, 1995. - 176 б  
Письменные источники по истории и культуре Казахстана и Центральной Азии XIII—XVIII вв. = Written sources on history and culture of Kazakhstan and Central Asia XIIIth — XVIIIth centuries : (Библиогр. обзоры) / М. Х. Абусейтова, Ю. Г. Баранова. — Алматы : Дайк-пресс, 2001. — 420, [2] с., [2] л. цв. ил.; 22 см. — (Серия «Казахстанские востоковедные исследования» / Ин-т востоковедения им. Р. Б. Сулейменова М-ва образования и науки Респ. Казахстан).; ISBN 9965-441-59-6  
International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor Volume-11| Issue-4| 2023 Published: |22-04-2023| Publishing centre of Finland 887 Jung'or xonligining siyosiy tarixi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7830927> Jabborov Oybek Axrorbek o'g'li